



YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Mirkomilov Baxtiyor JDPU professor

*Husanxonova Kifoyatxon JDPU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(Tarix) 1-kurs magistranti*

Annotasiya: Vatanparvarlik tushunchasi qadimdan insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tushuncha jamiyatning ma'naviy-axloqiy tamoyillari bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson shaxsining shakllanishi va kamolotida muhim rol o'ynaydi. Vatanparvarlik - bu inson qalbining eng ezgu tuyg'ularidan biri bo'lib, Vatan oldidagi burchni, uni himoya qilish, ardoqlash, rivojlantirish istagini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada vatanparvarlik ruhida yosh avlodni tarbiyalash, ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, vatanparvarlik, ta'lim tizimi, tarixiy shaxslar, yosh avlod.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviy-ma'rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so'z bilan aytganda ma'naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev - Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy etuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va



manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda», - deb bu borada qilishimiz lozim bo'lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko'rsatmalarni berib o'tdilar[4].

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarorida yoshlarning sog'lom kamol topishi, sifatli ta'lim olishi hamda barkamol shaxs sifatida voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, ularning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini keng qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni hayotga tatbiq etish bo'yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani alohida qayd etilgan. Mamlakatimizda barpo etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, oliy ta'lim tashkilotlari, nufuzli xorijiy universitetlar filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat markazlari hamda sport majmualari, shuningdek, innovatsion ta'lim muassasalari — "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi" va "Ijod maktablari" globallashuv sharoitida raqobatbardosh, yuqori salohiyatga ega mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirishga xizmat qilmoqda[2].

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini samarali tashkil etish, bu boradagi ishlarga vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini faol jalb etish, shuningdek, harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ommaviy sport tadbirlarini o'tkazishda sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. Bu bo'yicha Qoraqalpog'iston



Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari manfaatdor vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy organlari bilan birgalikda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar sifatli tashkil etilishi va o'tkazilishini vazifalari yuklatildi[1].

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida olib borilayotgan izchil islohotlar vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini yanada oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu tarbiya maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab oliy ta'lim tizimigacha uzviy va tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyati hamda uning yoshlar hayotidagi ahamiyati tahlil etiladi.

Ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasi bir qator yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, tarix, adabiyot va ona tili fanlari mashg'ulotlarida o'quvchilarga milliy qahramonlar, muhim tarixiy voqealar, ajdodlarimizning yurt ravnaqi yo'lidagi fidokorona faoliyati haqida ma'lumotlar yetkazilishi ularda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantiradi. Shuningdek, "Vatan tuyg'usi", "Ma'naviyat asoslari" kabi fanlar yosh avlod qalbida yurtga muhabbat, milliy g'urur va sadoqat hissini tarbiyalashga qaratilgan.

Vatanparvarlik tarbiyasida tarixiy shaxslar faoliyatidan ibratli misollar keltirish muhim pedagogik usul hisoblanadi. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk ajdodlarimizning hayot yo'li va Vatan himoyasi yo'lida ko'rsatgan jasoratlari yoshlar ongida faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Bundan tashqari, tarixiy obidalarga va muzeylarga sayohatlar tashkil etish, muhim tarixiy sanalarni xotirlash orqali ham vatanparvarlik ruhini mustahkamlash mumkin[5].

Vatanparvarlik birinchi navbatda qalbdan boshlanadi. Agar inson qalbida yurtga nisbatan muhabbat bo'lsa, u hech qachon begona g'oyalarga aldanmaydi, hech qachon yurtiga xiyonat qilmaydi. Bu tuyg'u insonda ongli ravishda



shakllanadi, lekin uning ildizi bolalikdanoq tashlanadi – avvalo oilada, keyin esa maktabda, jamiyatda, muhitda.

Bu tuyg‘u jamiyatni birlashtiruvchi, xalqlarni yaqinlashtiruvchi, insonlarga kuch beruvchi muqaddas his hisoblanadi. Har bir insonning yurtga bo‘lgan muhabbati uning shaxsiyati, hayotdagi maqsadlari va tanlovlarida yaqqol seziladi. Masalan, ota-onasiga mehr ko‘rsatgan farzand, ustozlariga hurmat bilan yondashgan o‘quvchi, tabiatni asragan fuqarolar – barchasi o‘z yurti uchun foydali ish qilayotgan vatanparvar insonlardir.

Vatanparvarlik – bu nafaqat yurt haqida gapirish, balki yurt sha‘nini amalda yuksaltirishdir. Ilm yo‘lida izlanayotgan talaba, mehnatsevar dehqon, halol tadbirkor, adolatli rahbar, fidoyi shifokor – barchasi o‘z kasbi orqali Vatanga xizmat qilayotgan vatanparvarlardir.

Zamonaviy dunyoda vatanparvarlikning qamrovi yanada kengaydi. Endi u faqat urushda qurol ko‘tarib yurtni himoya qilish emas, balki kompyuterda dastur yozib Vatan nufuzini oshirish, sportda, san‘atda, fan va texnologiyada yutuqlarga erishib, yurt bayrog‘ini dunyoda baland tutish demakdir. Vatanparvar inson boshqalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi – u o‘z yurti haqida yomon gap eshitganda jim qolmaydi, balki uni himoya qiladi, yosh avlodni ham shu ruhda tarbiyalaydi[3].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik yosh avlod shaxsini shakllantirishda muhim ma’naviy-axloqiy omil bo‘lib, u jamiyat barqarorligi va milliy taraqqiyotning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Vatanparvarlik tuyg‘usi insonda tug‘ma emas, balki ijtimoiy muhit, tarbiya va ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ayniqsa, bolalik va yoshlik davrida berilgan ma’naviy tarbiya shaxsning butun hayoti davomida uning dunyoqarashi, qadriyatlari va fuqarolik pozitsiyasini belgilab beradi. Ilmiy manbalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekistonda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan



biri sifatida qaralmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, “besh muhim tashabbus” doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, zamonaviy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni milliy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, vatanparvarlik tarbiyasi faqatgina harbiy yo‘nalish bilan cheklanmay, balki ona tiliga hurmat, tarixiy xotirani asrash, milliy an‘ana va urf-odatlarga sadoqat, mehnatsevarlik, fuqarolik mas’uliyati kabi tushunchalarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli jarayon hisoblanadi. Ta’lim tizimida tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini o‘rganish, fanlararo yondashuv asosida vatanparvarlik mazmunini singdirish, shuningdek, oilaviy va mahalla muhitida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ushbu jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tushunchasining mazmuni yanada kengayib, u ilm-fan, axborot texnologiyalari, sport, madaniyat va san’at sohalarida erishilayotgan yutuqlar orqali Vatan nufuzini oshirish bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Bu holat yosh avlodda Vatanga xizmat qilishning turli ko‘rinishlari mavjudligi haqidagi tushunchani mustahkamlab, ularni ongli va mas’uliyatli fuqarolar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uzluksiz, tizimli va kompleks yondashuvni talab etuvchi jarayon bo‘lib, unda oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning barcha institutlari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hamkorlik asosida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodda mustahkam hayotiy pozitsiya, milliy g‘urur va Vatan ravnaqi uchun mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.06.2020-yildagi 369-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risi" da 29.06.2023 yildagi 267-son .
3. Jahangirov Javoxir Jahongirovich "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularni yurti uchun sodiq bo'lishiga ota onaning harakati" "Yurt faxri" ilmiy-amaliy ko'rik tanlovi 2024-yil
4. Muxsinjon Mo'minov "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal 2022 734-740-betlar.
5. Zarnigor Burxon qizi Davronova "Vatanparvarlik tarbiyasi tushunchasi va ahamiyati" "Science and Education" Scientific Journal 2025 148-152-betlar.
www.openscience.uz